



“ILK QADAM” DAVLAT O’QUV DASTURI ASOSIDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNI REJALASHTIRISH

Irisboyeva Yo.O`.

*Renessans ta`lim universiteti Pedagogika fanlari va psixologiya
fanlari kafedrasi dotsenti*

Tayanch soʻzlar: nutq, oʻqish, savod, tayyorgarlik, mashgʻulotlar, tarbiyachi, bolalar, qisqa muddatli guruhlar, kunning birinchi va ikkinchi yarmi, mashgʻulot turlari, taʼlim-tarbiya.

Ключевые слова: речь, чтение, грамотность, подготовка, обучение, воспитатель, дети, кратковременные группы, первая и вторая половина дня, виды обучения, воспитание.

Key words: speech, reading, literacy, preparation, training, educator, children, short-term groups, first and second half of the day, types of training, education.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada bolalarni savodxonlikka oʻrgatishda davlat talablarining oʻrni, qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlashni rejalashtirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещена роль государственных требований в обучении детей грамоте, планировании подготовки детей к школе в краткосрочных группах.

SUMMARY:

In this article, the role of state requirements in teaching children to be literate, the planning of preparing children for school in short-term groups is covered.

Tovushlarni toʻgʻri talaffuz etish va soʻzning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga oʻrgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish. Ushbu navbatdagi gap atrofida gaplar tuzdirish, shu tariqa xabarni mukammal holga keltirish ishini davom ettirish va nihoyalash bogʻlanishli nutq oʻstirish borasida katta taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Taʼlimiy jihati shundaki, bolalar bir gapni ikkinchisiga mantiqan bogʻlash, bunda leksik va grammatik vositalardan foydalanishga doir qoʻshimcha bilim oladigan, koʻnikmalar hosil qiladilar. Tarbiyaviy jihati tuzilayotgan jumalarning mazmunli va taʼsirchan ekanligida koʻrinadi.



Ta'limiy faoliyatlarni o'tkazib borish jarayonida bolalar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini holisona ko'tarinki tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi. Hamma yoshdagi guruhlarda bajariladigan mashqlar o'yin elementlari kichik guruhda-syurpriz momenti ko'rinishida, o'xshash harakatlar, ertak qahramoni va hakovlardan iborat bo'ladi. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterida bo'ladi. Shuningdek, bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga predmetlar, ularning nomi, tuzilishi, shakli, rangi, xususiyatlari hamda erta o'qish, sanash, turli material va asboblardan tanishish va ishlash kabilar katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi o'z faoliyatida bor bo'lgan imkoniyatlardan qancha ko'p foydalansa, uning qobiliyatlari ham shunchalik rivojlanadi. Bu imkoniyatlardan foydalanish bolaning ilk yoshligidan boshlansa, oson amalga oshadi. Bu vaqtda olamni bilish jarayoni juda intensivlik bilan kechadi. Bunda kichikintoy har qachongidan ko'proq ijod bilan shug'ullangan va ko'pgina yangi vazifalarni mustaqil echishga majburdir. Ayniqsa, bolalar oldiga muammoli vaziyatni qo'yish, ularni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shuning uchun matematika ta'limiy faoliyatlari o'yin va qiziqarli masalalar orqali uyushtirilsa yaxshi samara beradi. Jumladan:

- ta'lim jarayonini osonlashtiradi;
- bolani chuqurroq bilim olishga undaydi,
- bolalarni ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi,
- matematika bo'lgan qiziqishini oshiradi,
- bolalarning tez fikrlash, tasavvur qilish, o'qish malakasini rivojlantiradi.

Matematik o'yinlar bolalar bilimni boyitishga, ularning aqliy faoliyatini o'stirishda, bola hayotining rivojlanishiga yordam beradi. Ta'limiy faoliyat jarayonida raqamlardan foydalanib masalalar tuzishda ularning qatori qancha o'xshash bo'lsa shuncha bolalar chalg'ishadi. Shuning uchun raqamlarni juft-juft qilib berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 5 raqami, 5 ta olma, 10 raqami undan ko'proq olmani bildiradi deb ko'rsatilganligi tushuntiriladi. Bolalarni qabul qilishi, tushinishi va esda saqlab qolishi osonroq bo'ladi. Bolalar masala echishni juda yaxshi ko'radilar. Bu borada ham aniq tartibga amal qilish kerak. Dastavval ular syujetli masalalarni o'ylab, yechadilar: Ona 15 ta qurt sotib olib, 5 ta qurti qo'shnisiga berdi. Nechta qurt qoldi? Bu kabi topshiriqlar bolalarni o'ylashga, fikrlashga undaydigan masalalar, o'yinlar, topishmoqli boshqotirmalar tafakkurni o'sishiga, ularni har tomonlama rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita hisoblanib, muammoli vaziyatlar yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi, bolalarning kattalar bilan muloqotni tashkil etishga yordam beradi.



Bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o‘qish, yozishga doir malaka va ko‘nikmalarini boyitib borishga doir quyidagi mashq va mashg‘ulotlarni tavsiya etish mumkin:

«Ertak to‘qiyimiz»

Maqsad: Bolalarda xotirani, ijodiy tafakko‘rni, tasavvo‘rni rivojlantirish va qo‘l matorikasini yaxshilash.

Ko‘rsatma: Bola bir butun matnlarni eslab qolishi va qayta esga tushirish malakasini ham o‘zlashtirishi lozim. Shu sababli bolaga 4-5 asosiy epizoddan iborat qisqa hikoya va ertak o‘qib beriladi hamda uni takrorlab berishi so‘raladi. Bolalar eshitganlarini behato takrorlab berishga ko‘p hollarda qiynaladilar. Bola eshitganini yozib ololmaydi, shu sababli unga ertakni suratlar orqali eslab qolishni taklif etish kerak. Avvaldan tayyorlangan qog‘oz varag‘iga kvadrat chiziladi va ertak boshi eslanadi. Masalan, ertak boshida qizcha uydan chiqqani aytilgan, shu kvadratga uycha va qizcha rasmini chizish bilan voqea boshini tasvirlasa bo‘ladi. So‘ng yana bitta kvadrat chiziladi va boladan ertakning davomini eslash so‘raladi. Shu holatni 2-3 belgi bilan tasvirlash so‘raladi va shu tariqa ertakning qolgan voqealarini ketma-ket davom ettirish imkoni yaratiladi. O‘yin va mashqlar sekin-asta murakkablasha borib, fonematik idrokni, talaffuz malakasini, eshituv diqqatini, verbal (nutqiy) xotirani, artikulyatsion motorikani rivojlantirishga yo‘naltiradi. Quyida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, uning yozuvdagi ifodasini taniy olish hamda ushbu tovushlarning so‘zlardagi qo‘llanilish o‘rinlarini o‘rgatishga doir namunalar keltirildi:

1. Rasmlarda tasvirlangan “ayiq”, “tarvuz”, “olma” kabi so‘zlardagi “A” tovushining o‘rnini aniqlash.

2. “A” tovushi ishtirok etgan so‘zlarni eslash va ularni aniqlash.

3. Barmoqlar bilan harflarni hosil qilish.

4. Qalam, sanoq cho‘p yoki kesmalardan harflarni hosil qilish.

5. Tebranish mashqi. “A” tovushini ovozni ko‘tarib, pasaytirib kuylash.

6. “A” tovushi qatnashgan so‘zlardan gap tuzish (rasmlar asosida).

7. Nuqtalarni birlashtirish va harflarning nomini aytish.

8. “A” hamda shu kabi harflarning ichini bo‘yash.

9. “Chapak”, qalam, paxta kabi so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish.

10. “Klaster” metodi orqali “A” hamda shu kabi harflarni tarmoqlantirish.

11. “L” harfini yasash uchun nechta kubikdan foydalanilgan? Ushbu kubiklarni har xil rangga bo‘yang.

12. Berilgan geometrik shakllarning nomlarini ayting. Kvadrat shaklini qora, uchburchak shaklini qizil, kub shaklini yashil, to‘rtburchakni sariq, shar shaklini havorangga bo‘yang.



13. Shakllarni 2, 4, 6 va 8 ta teng bo‘laqlarga bo‘ling. Mashg‘ulotlar bolaning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o‘qish, yozishga doir malaka va ko‘nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta‘lim talablariga munosib tabiiy shakl, o‘yinlar yordamida rivojlantirib borishini ta‘minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish maqsadida qiziqarli matematik o‘yinlar, mantiqiy masalalar va mashqlar berib, bosh qotirmalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Interfaol ta‘lim – ta‘lim oluvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, ular orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydi. Inson savodxonligi uning kelajak hayotining sifati darajasini belgilaydi va bugungi dunyoning jadal texnik yuksalish davrida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkonini yaratadi.

Rejalashtirish - bu zarur shart-sharoit, foydalanilayotgan vosita, shakl va uslublarni ko‘rsatgan holda, ta‘lim-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma-ketligini oldindan belgilash jarayoni. Umuman, ta‘lim-tarbiya ishining samaradorligi rejalashtirish qay darajada pishiq-puxta o‘ylangani va amalga oshirilgani bilan belgilanadi.

Rejalashtirish pedagogik vaziyat rivojida noaniq holatlarning kamayishi bilan bir qatorda, pedagogning bugungi va ertangi faoliyatida uzviylikni ta‘minlaydi.

Ta‘lim-tarbiya ishini rejalashtirish pedagogning bolalar jamoasi va otalar hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat doirasidagi maqsad va vazifalarni anglash, maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalar hayotini qiziqarli va foydali bo‘lishini ta‘minlash istagiga asoslangan.

Rejalashtirish modelini tanlashda har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi, o‘z faoliyati natijalarini ko‘rib, tahlil eta olishi hamda MTTdagi shart-sharoit e‘tiborga olinishi zarur.

Istiqbol reja – bolalar bilan ishlashda asosiy hujjat hisoblanib, u bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini rejalashtirishni talab etadi. Mazkur hujjatsiz tarbiyachining ish boshlashi tavsiya etilmaydi.

O‘zini tutish madaniyati va ma‘naviy fazilatlar bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy jarayon mobaynida (maishiy hayotda, o‘yin, mehnat, mashg‘ulot jarayonida) shakllantirilishi sababli, u alohida bo‘lim tarzida rejalashtirilmaydi. Shuning uchun talabning murakkablashib borishini ko‘zda tutgan holda,



pedagogik uslub va vositalarga tayanib, istiqbolli rejalashtirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbolli mavzu rejasi bir oyga tuzilib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'limiy faoliyat paytida ta'lim berish.
2. Bolalar bilan individual ish (ta'limiy faoliyatlardan keyin).
3. Ota-onalar bilan ishlash.

Rejada guruh bolalarining ro'yxati, adabiyotlar ro'yxati, ish kuni davomida bolalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha mashg'ulotlar jadvali kiritiladi.

Kundalik reja 1-2 haftaga mo'ljallab tuziladi. U reja-konspekt shaklida yozilib, unda butun ish kuni davomidagi faoliyat batafsil yoritiladi:

ertalab (bolalar bilan individual ishlash, madaniy-gigiyenik va o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ish, didaktik o'yinlar o'tkazish va boshq.), mashg'ulotlar davomida (uning turi, mavzusi, maqsadi, kerakli jihozi, mashg'ulotning borishi), sayr paytida (kuzatish, mehnat, harakatli o'yinlar, o'yin faoliyati, yakka ishlash, bolalarning uyga ketishi).

Pedagog reja shaklini mustaqil tanlashi mumkin. Shunga qaramasdan, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja yozishning yagona shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Istiqbolga mo'ljallangan mavzular rejasi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Bolalar asosiy faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligini (o'yin, mehnat, ta'lim va h).
2. Bir oyga mo'ljallangan vazifalarning ketma-ketlik va muntazamlilik tamoyilining amalga oshirilishini.
3. Muayyan yosh guruhiga doir dasturning barcha bo'limlaridagi vazifalarning o'zaro bog'liqligini.
4. Bevosita ta'limiy faoliyat, o'yin, mehnat faoliyatidan keyin ayrim bolalar bilan individual ishlashning tizimlilik asosida olib borilishini.
5. Kuzatuvlarni bir kun oldin yoki shu kuni rejada qayd etishni.

Rejani bunday tarzda yozish turini qo'llaganda yakuniy ta'limiy faoliyat, suhbat, ekskursiyalar, kompleks faoliyatlarning kuni belgilanib olinishi zarur. Bunday rejalashtirish pedagogning kuchi va vaqtini tejash bilan birga, bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarining yaxlit manzarasini ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida bir yilga mavzular bo'yicha rejalashtirish, ta'lim sohalarini o'zaro uyg'unlashtirish, loyihalarni va bolalarning sinov-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish hamda integral ishlash tamoyilini joriy etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ish rejasi:



- ta'lim-tarbiya faoliyatining maqsadi, strategik va taktik vazifalarini aniq ifoda etish;

- ta'lim-tarbiya ishining mazmunini maqsadli belgilash, uning vositalari va tashkiliy shakllanishini tanlash;

- jamoaning va har bir shaxsning ilgari namo harakatini rejalashtirib hamda tegishli o'zgartirishlar kiritib borish jarayonida o'z faoliyatning istiqboldagi natijalarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

Ilmiy jihatdan asoslangan aniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishini engillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o'zaro hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalarini tahlil etishga asoslanadi.

Xulosa o'rnida, O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

Adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, Toshkent-2022 yil.
2. Mirjalolova L. Bolalarning so'z boyligini ertaklar asosida oshirish. – Toshkent, 2008 yil.
3. Ирисбаева Ё. У. связная речь-главное достижение в речевом развитии детей дошкольного возраста //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.
4. Musaev A. Technologies for organizing independent education of students in a digital educational environment //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
6. Irisbayeva Y. Professional readiness of future educators to interact with children of preschool age // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 7.